

SADIY Abdulkarim

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islomshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Raximdjano Durbek,
tarix fanlari nomzodi, dosent

IMOM NAVAVIY VA UNING "RIYOZU-S-SOLIHIN" ASARI

IMAM NAWAWI AND HIS WORK "RIYAZU-S-SALIHIN"

ИМАМ НАВАВИ И ЕГО ТРУД «РИЯЗУ-С-САЛИХИН»

Annotatsiya. Maqolada buyuk olim, muhaddis, o'z zamonasida shuhrat qozongan Imom Abu zakariyo Navaviy, uning tug'ilgan, yashagan va vafot etgan joyi, ilmga bo'lgan qiziqishlari, taqvodorligi, ta'lim olgan ustozlari, shogirdlari, ilmiy faoliyati, yozgan asarlari haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Shunigdek, olimning "Riyozu-s-solihin" hadislar to'plami, uning mavzulari, kitobning tartibi, hadislarining soni, mazmum-mohiyati, musulmon olamida hozirgi kunga qadar egallagan baland mavqei to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Imom Navaviy, "Riyozu-s-solihin", Damashq, oyat, hadis, tadvin, Ravohiya.

Аннотация. В статье представлена подробная информация о великом ученом Мухаддисе, имаме Абу Закарии Навави, получившем известность в свое время, о месте его рождения, жизни и смерти, его интересе к науке, его благочестию, его учителях, его учениках, его научной деятельности и его работы. Кроме того, обсужден сборник хадисов учёного «Риязу-с-Салихин», его тематика, порядок книги, количество хадисов, их содержание, а также высокое положение в мусульманском мире.

Ключевые слова: Имам Навави, «Риязу-с-Салихин», Дамаск, аят, хадис, тавдин, Равахия.

Annotation. The article provides detailed information about the great scientist Muhaddith, Imam Abu Zakariya Nawawi, who gained fame in his time, about the place of his birth, life and death, his interest in science, his piety, his teachers, his students, his scientific activities and his work. In addition, the collection of hadiths of the scientist "Riyazu-s-Salihin", its topics, the order of the book, the number of hadiths, their content, as well as their high position in the Muslim world were discussed.

Key words: Imam Nawawi, "Riyazu-s-Salihin", Damascus, verse, hadith, tadwin, Rawahiya.

KIRISH

Imom Abu Zakariyo Navaviy VII/XIII asrda yashab ijod etgan sof islom ta'limotini keyingi

avlodga yetkazgan, hadis imomlaridan biri sanaladi.

Uning to'liq ismi Imom Hofiz Shayxul Islom Muhyiddin Abu Zakariyo Yahyo ibn Sharaf ibn Muriy Hizomiy Huroniy Shofeiyy bo'lib, nodir asarlar muallifi hisoblanadi. U 631/1233-yil muharram oyida Damashqdan 75 kilometr janubda joylashgan Navo qishlog'ida tavallud topgan. Olim hayotining asosiy qismini Damashqdagi Dorul-Hadis madrasasida o'tkazgan. Imom Navaviy 45 yoshida 676/1277-yil rajab oyida vafot etgan va Navo shahrida dafn etilgan.

ASOSIY QISM

Olim hijriy 605/1209-yil 20 yoshida otasi bilan Hajga borib, Madinada bir yarim oy muddat qolgan. Imom Navaviy taqvodorligi, amirlarga pand-nasihat qilishi hamda yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarishi bilan ajralib turgan. Olim parhezkorligi sababli Damashq shahri ko'chalaridagi mevalardan yemagan. Bunga sabab u yerdagi vaqf yerlari o'sha davrdagi hukmdor tomonidan tortib olinib, musodara qilingan va uni iste'mol qilgan odam mumkin bo'lmagan haqni yegan bo'lib qoladi, degan istihola bilan ehtiyotkorlik qilganida edi [2].

Shayx Yosin ibn Yusuf quyidagi bo'lib o'tgan voqeani keltiradi: "Navaviyni 10 yoshligida Navo shahrida ko'rdim, uni boshqa bolalar o'ynashga chaqirar, ammo u ulardan qochib Qur'on o'qir edi. Shunda uning Qur'onga bo'lgan muhabbati mening qalbimdan joy oldi, so'ngra ustozining oldiga borib: "Bu bola zamonasining eng kuchli olimi va zohidi bo'lishi hamda insonlar undan manfaat olishidan umid qilaman", dedim. Ustozi mendan: "Sen munajjimisan?", deya so'radi. Men esa bu gapni faqat Alloh taolo tilimga keltirgani, so'ngra bayon etganimni ma'lum qildim. Shunda ustoz bu gapni Navaviyning otasiga aytganida, uning otasi farzandining ilm olishiga bo'lgan e'tiborini kuchaytirdi".

Imom Navaviy dastlabki ilmni o'z yurtida olib, yoshligidanoq Qur'oni karimni yod olgan. Uning ilmga bo'lgan muhabbatini ko'rgan otasi 649/1251-yilda ya'ni, o'n to'qqiz yoshida tahsilini davom ettirishi uchun Shomga eltib, shayx Abdurrahmon ibn Ibrohim ibn al-Farkohga shogirdlikka beradi. Navaviy bir muddat bu yerda ilm olgach, Ravohiya madrasasining shayxi imom faqih Kamoliddin Is'hoq ibn Ahmad ibn Usmon al-Mag'ribiy huzuriga ilmini davom ettirish uchun boradi va umrining aksar qismini shu madrasada o'tkazadi.

Zahabiyning "Tazkiratul huffoz" asarida keltirilishicha, Imom Navaviy kechayu kunduz, hatto yo'lda ham bir lahzasini zoe qilmas edi.

Ibn Attor aytadi: “U zot hadis ilmida zehnli edi, mazhabi shofe’iylilik bo’lib nahv, fiqh asoslari, hadis, din ilmi sohalarida ko’plab kitoblar jam etib, din asoslari haqida ma’lumot berdi va bu fanlar bo’yicha ko’plab kitoblar yozdi. U har kuni 12 ta fandan turli ustozlardan dars olib, o’zi uchun ilmiy yangiliklarni eshitib, daftariga yozib qo’yar edi”. [1;32]

Olimning ustozlari Abdurrahmon ibn Ibrohim ibn al-Farkoh, ibn shayx Kamol Is’hoq Mag’ribiy, Abdurahmon ibn Nuh Radha ibn Burhon, shayx Abdul-Aziz ibn Muhammad Ansoriy, Zayniddin Ibn Abdul-Daim, Imod ibn Abdulkarim Xristoniy, Zayniddin Xalaf Ibn Yusuf, Taqiyiddin Abu al-Yusr, Jamoliddin Sayrofiy, Shamsiddin Ibn Abu Umar va boshqalardir.

Imom Navaviy Shom yurtidagi al-Falakiya, ar-Rakiya, al-Ashrafiya, Iqboliya kabi mashhur madrasalarda dars bergan. Uning shogirdlari Xatib Sadr Sulaymon, Ja’far Shihobiddin Ahmad ibn Ja’ron, Shihobiddin Irbadiy Alovuddin ibn Attor va ibn Abu al-Fath Muzziydir.

Imom Navaviy “Sahih muslim” asariga sharh yozgan bo’lib, mazkur sharh olimlar orasida shuhrat qozongan asarlardan biri sanaladi. Uning yana “Ravzatu-t-tolibin”, “al-Azkor”, “at-Tibyon fi odobi hamalatil Qur’on”, “al-Majmu sharhul muhib”, “Riyoziyus-solihin min kalomi sayyidil mursalin”, “al-Arba’in” va boshqa mashhur kitoblari bor.

“Riyoziyus-solihin” (“Solihlar gulshani”) kitobi keng tarqalgan asarlar sirasiga kirib, unda turli mavzularga oid 1896 ta hadis jamlangan. Asarning birinchi bobi oyatlardan boshlanib, so’ngra hadislar tartiblashtirilgan. “Riyoziyus-solihin” asari Kanadadan Avstraliyagacha islom olamida janub va shimolda barcha masjidlarga uchraydi va turli tillarga tarjima qilingan [1;31].

“Riyoziyus-solihin” kitobi 372 bobdan iborat bo’lib, undagi hadislar asosan ta’lim-tarbiya, odob-axloq kabi mavzulardan iborat. Shuningdek, unda tavba, sabr, rostgo’ylik, taqvo, sobitqadamlik, yaxshi amallarga jiddu-jahd qilish, sunnat va uning odoblariga bardavom rioya qilish, umumiy odoblar, shukronalik, adolat, ibodat, musofirchilikka tegishli masalalar, Haj amali, zikru duolar, xayr-saxovat, zakot, yangi paydo bo’lgan bid’atlardan qaytarish, ramazon tarovati, musulmonlarning ayblarini yashirish hamda uni zaruratsiz yoyishdan qaytarish, oilaviy munosabatlar kabi bir qator mavzulardagi hadislar o’rin olgan.

“Riyoziyus-solihin” asaridan keltirilgan ayrim namunalarni quyida ko’rish mumkin:

“Adolatli boshliqning fazilati haqida”, deb nomlangan 79-bob shunday boshlanadi: Alloh taolo: «**Albatta, Alloh adolatga va chiroyli**

amallar qilishga ... buyurur» (Nahl surasi, 90-oyat), «(Mudom) **adolat qilinglar! Zero Alloh adolat qilguvchilarni sevar**» (Hujurot surasi, 9-oyat), deb aytgan.

Keltirilgan oyatga mos ravishda undan keyin hadislar beriladi:

658/1. Abu Hurayradan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.): «Alloh taolo soya yo’q kunda yetti toifa kishiga o’z soyasidan (Qiyomat haroratida Arshning soyasidan) panoh berur: 1) odil podshoh; 2) Allohning ibodatida o’sgan yigit; 3) masjidga qalbi muallaq (bog’liq) bo’lgan kishi, ya’ni masjiddan chiqib, to unga qaytguncha qalbi bog’liq bo’luvchi; 4) Alloh yo’lida do’st bo’luvchi ikki birodar shaxs, ular Alloh yo’lida jam bo’lib, Uning yo’lida ajraladilar; 5) bir kishini husnu jamolda tenggi yo’q ayol (yomon niyatda) o’z nafsiga chaqirsa, u kishi Allohdan qo’rqaman, deb javob qilsa; 6) bir kishi biror sadaqa qilsa, o’sha bergan sadaqasini shu darajada maxfiy qilsaki, o’ng qo’li bilan berganini chap qo’li sezmasa; 7) bir kishi xoli holda Allohni eslaganida, ko’zidan yosh oqsa», dedilar (Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari.)

659/2. Abdulloh ibn Amr ibn Ossdan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.) «Adolatli bo’lgan (boshliq)lar uchun Alloh huzurida nurdan bo’lgan minbarlar bordir. Ya’ni u boshliqlar hukm chiqarishda, o’z ahlilari va o’z vazifalariga adolatli bo’lishadi», dedilar (Imom Muslim rivoyatlari).

661/4. Iyoz ibn Himordan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh (s.a.v.): «Uch toifa kishi jannat ahlidir: 1. Adolatga muvaffaq bo’lgan podshoh; 2. Qarindoshlari va musulmon birodarlariga rahmli hamda qalbi yumshoq kishi; 3. Bolalari ko’p va o’zi muhtoj bo’lsada tilanchilik qilmaydigan kishi», dedilar. (Imom Muslim rivoyatlari).[4]

XULOSA

Xulosa qilib oladigan bo’lsak imom Navaviy o’sha davrning mashhur hadis ilmi olimlaridan biri bo’lib, islom ta’limoti sohasiga oid ko’plab asrlarni yozgan. Bularidan biri Riyoziyus-solihin asari odob axloq, ta’lim, tarbiya va turli xil ijtimoiy va xususiy munosabatlarni qamrab oluvchi, bugungi kundagi barcha musulmonlarga mafaatli asardir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abu Zakariyo Yahyo Navaviy. Riyoziyus solihin. – Iron: Intishoroti kurdiston, 1386 h. – J. 1. – B. 30.
2. Abu Zakariyo Yahyo Navaviy. Riyoziyus solihiy. – Libnon: Muassisat ar-risola, 1997. – B. 16.
3. Хамрокулов Ж. Хадиси шариф: Имом Нававий // <http://old.muslim.uz/index.php/hadis/item/1234-imom-navavij>
4. Мирахмадов А. Имом Нававийнинг хаёти ва ижоди // <https://oliymahad.uz/30594>